

**KOSMOPOLITIZM SIYOSIY NAZARIYA SIFATIDA: TARIXI, ASOSIY G'OYALAR VA O'ZBEKISTON KONTEKSTIDA QO'LLANILISHI**

*Saypillayev Bexruz O'tkir o'g'li*

*O'zbekiston milliy universiteti*

*Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada kosmopolitizmning siyosiy nazariya sifatida rivojlanishi, asosiy g'oyalari va O'zbekiston kontekstida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi kosmopolitizmi vatanparvarlikka qarshi emas, balki inson huquqlari va madaniy bag'rikenglikni kuchaytiruvchi global mas'uliyat sifatida ko'rsatish. Metodologiya qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va sotsiomadaniy interpretatsiyaga asoslanadi. Maqolada kosmopolitizmning antik davrdagi ildizlaridan globallashuv davrigacha evolyutsiyasi ko'rib chiqiladi, siyosiy va axloqiy jihatlari muhokama etiladi. O'zbekiston kontekstida milliy o'zlik bilan global fuqarolik balansi tahlil qilinadi. Natijada, kosmopolitizm O'zbekiston uchun milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Kosmopolitizm, siyosiy nazariya, globallashuv, milliy identifikatsiya, milliy o'zlik, bag'rikenglik.

### **Kirish**

Bugungi globallashuv davrida siyosiy nazariyalar va ularning davlatlar hayotiga ta'siri ortib bormoqda. Kosmopolitizm siyosiy nazariya sifatida butun dunyo fuqarosi bo'lish, davlatlar chegaralardan ustun turuvchi inson huquqlari va global mas'uliyat g'oyasini ilgari suradi. Bu nazariya qadimdan mavjud bo'lsa-da hozirgi vaqtda iqtisodiy, madaniy va siyosiy integratsiyalar sharoitida yangi ma'no kasb etmoqda. Masalan, O'zbekistonning so'nggi yillardagi xorijiy siyosati, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatni mintaqaviy va global hamkorlikka ochiq qilmoqda. Bu jarayonda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotida faol ishtirok etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va savdo aloqalarini kengaytirish kabi amaliy qadamlar ko'zga tashlanadi. Bu esa milliy qadriyatlarni saqlagan holda global fuqarolik elementlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi[1]. Bunday o'zgarishlar nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki madaniy almashinuv va mintaqaviy barqarorlikka ham hissa qo'shmoqda.

Kosmopolitizmi siyosiy nazariya sifatida o'rganishning dolzarbligi shundan iboratki, u vatanparvarlikka qarshi kuch sifatida emas, balki global mas'uliyatni ta'minlovchi mexanizm sifatida qaralishi kerak. Klassik nazariyotchilardan biri

Immanuel Kantning "Abadiy tinchlik sari" asarida ta'kidlaganidek, kosmopolitizm davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirib, urush va ziddiyatlarni kamaytirishga xizmat qiladi[3].

### **Adabiyotlar tahlili**

Kosmopolitizm siyosiy nazariya sifatida o'rganilganda, mavjud adabiyotlarning tahlili nazariyaning rivojlanishini va uning zamonaviy qo'llanilishini chuqur tushunishga yordam beradi. Bu bo'limda klassik va zamonaviy nazariyotchilarning asarlari tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili nazariyaning global mas'uliyat va milliy identifikatsiya o'rtasidagi muvozanatni ko'rsatishga asoslanadi, bu esa ishni ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Kosmopolitizmning klassik ildizlari qadimgi Yunoniston falsafasiga borib taqaladi. Diogen ilk bor "dunyo fuqarosi"(kosmopolites) atamasini qo'llagan va milliy va etnik chegaralar bilan cheklanmaydigan fuqaro bo'lish g'oyasini ilgari surgan. Stoiklardan Zenon va Epiktet, bu g'oyani rivojlantirib, butun insoniyatni yagona jamiyat sifatida ko'rishni taklif qilganlar. Ushbu yondashuv siyosiy nazariyada davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirishga xizmat qilgan, ammo u asosan falsafiy-axloqiy xarakterda bo'lgan. XVIII asrda Immanuel Kant kosmopolitizmni siyosiy darajaga ko'tarib, "Abadiy tinchlik sari" asarida xalqaro huquq va federativ tizimni taklif qilgan. Kantga ko'ra, kosmopolitizm davlatlar o'rtasidagi urushlarni oldini olish uchun global qonunlar va fuqarolik huquqlarini ta'minlashi kerak[3]. Bu klassik adabiyotlar kosmopolitizmni nafaqat individual darajada, balki institutsional tizim sifatida ko'rsatadi.

Zamonaviy adabiyotlarda kosmopolitizm ko'proq axloqiy va siyosiy jihatlarga urg'u beradi. Martha Nussbaumning "The Cosmopolitan Tradition" asarida nazariya "noble but flawed ideal" ya'ni "oliyjanob, ammo nuqsonli g'oya" deb ta'riflanadi. U inson huquqlarini universal qadriyat sifatida ko'rsatib, davlat chegaralaridan ustun bo'lgan adolatni himoya qiladi. Ammo, milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini e'tiborsiz qoldirishi mumkin[5]. Nussbaumning yondashuvi amaliy misollar orqali boyitilgan, jumladan, xalqaro inson huquqlari konvensiyalari va BMT tizimida kosmopolitizmning roli. Kwame Anthony Appiah esa "Cosmopolitanism: Ethics in a World of Strangers" kitobida nazariyani madaniy relativizm bilan bog'laydi. Kosmopolitizm boshqalarni hurmat qilish va dialog orqali global mas'uliyatni shakllantirishni ilgari suradi[6]. Appiahning tahlili zamonaviy muammolarga, masalan, migratsiya va madaniy konfliktlarga qaratilgan, bu nazariyani abstrakt falsafadan amaliy siyosatga aylantiradi. Gillian Brock va Harry Brighouse muallifligidagi "The Political Philosophy of Cosmopolitanism" antologiyasida kosmopolitizm global adolat va resurslar taqsimoti kontekstida muhokama etiladi. Bu nazariyaning iqtisodiy o'lchovini ochib beradi[7]. Zamonaviy adabiyotlarning kuchli tomoni empirik misollar, masalan, Yevropa Ittifoqidagi integratsiya tajribasi. Ammo,

ular asosan G‘arbiy kontekstga asoslangan.

Markaziy Osiyo va O‘zbekiston kontekstida adabiyotlar nisbatan kam, ammo so‘nggi yillarda rivojlanmoqda. Luca Anceschi Mirziyoyevning xorijiy siyosatini tahlil qilib, O‘zbekistonni globallashuv jarayonini ko‘rsatadi. Mamlakatning ShHT va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqidagi ishtiroki milliy manfaatlarni mintaqaviy hamkorlik bilan muvozanatiga misol bo‘ladi[1]. Farkhod Tolipov “Uzbekistan-2.0” kontsepsiyasida xorijiy siyosatdagi o‘zgarishlarni ko‘rib chiqadi, masalan, Rossiya va Xitoy bilan strategik sheriklik[4]. Timur Dadabaev Markaziy Osiyo davlatlarining xorijiy siyosatini tahlil qiladi. Undagi “bir mintaqa farzandlari” g‘oyasida kosmopolitizmga xos jihatlarni kuzatish mumkin[2]. Filippo Costa Buranelli Markaziy Osiyo regionalizmini o‘rganib, 1990-yillardagi “order” va “familiarization” mexanizmlarini ta’kidlaydi, bu kosmopolitizmning regional shaklini ko‘rsatadi[8]. Magnus Marsden Markaziy Osiyodagi islomiy kosmopolitizmni savdo va madaniy almashinuv orqali tahlil qiladi, masalan, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi biznes aloqalari[9]. Ushbu adabiyotlar O‘zbekistonning milliy qadriyatlar, xususan bag‘rikenglik an‘anasini global tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini ochib beradi, ammo empirik tadqiqotlar kam, ko‘pincha deskriptiv xarakterda.

Adabiyotlar tahlilidan chiqib, kosmopolitizm haqidagi mavjud tadqiqotlar global mas‘uliyatni ilgari sursa-da, O‘zbekiston kabi o‘tish mamlakatlar uchun original yondashuv zarur. Klassik va zamonaviy adabiyotlar nazariyani universal qilsa-da, mahalliy kontekstdagi bo‘shliqlar, masalan, o‘zbek madaniyatidagi bag‘rikenglik va xorijiy siyosatdagi muvozanatni batafsil o‘rganish ushbu ishning asosiy hissasini tashkil etadi.

### **Metodologiya**

Ushbu maqola kosmopolitizmni siyosiy nazariya sifatida tahlil qilishda ilmiy yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqot usullari quyidagi metodlarga tayanadi: qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va sotsiomadaniy interpretatsiya. Ushbu usullar nazariyaning tarixiy rivojlanishi, asosiy g‘oyalari va O‘zbekiston kontekstida qo‘llanilishini o‘rganishga imkon beradi[10].

Qiyosiy tahlil asosiy metod sifatida tanlangan, chunki u kosmopolitizmning tarixiy va zamonaviy shakllarini solishtirishga yordam beradi. Masalan, antik davr (Diogen va Stoiklar) bilan globallashuv davri o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni taqqoslash orqali nazariyaning evolyutsiyasi ko‘rsatiladi. Bu metod O‘zbekistonning xorijiy siyosatini boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan solishtirishda ham qo‘llaniladi, bu milliy o‘zlik va global fuqarolik o‘rtasidagi muvozanatni baholashga yordam beradi[2]. Tizimli yondashuv esa siyosiy tizimlar va institutlarni tahlil qilishda ishlatiladi: kosmopolitizmni global mas‘uliyat sifatida ko‘rib, O‘zbekistonning ShHT va BMTdagi ishtirokini tizimli ravishda o‘rganish mumkin. Bu usul rasmiy hujjatlar, masalan, O‘zbekiston Konstitutsiyasi va Prezident nutqlariga asoslanib, siyosiy

jarayonlarni tushuntiradi.

Sotsiomadaniy interpretatsiya metodi O‘zbekiston kontekstini chuqurlashtirish uchun qo‘llaniladi: o‘zbek madaniyatidagi bag‘rikenglik tushunchasini kosmopolitizm g‘oyalari bilan talqin qilish orqali milliy qadriyatlar va umumbashariylik o‘rtasidagi uyg‘unlik ko‘rsatiladi.

### **Asosiy qism**

#### **Kosmopolitizmning evolyutsiyasi: Antik davrdan globallashuv davrigacha.**

Kosmopolitizm siyosiy nazariya sifatida qadimiy falsafiy ildizlarga ega. Nazariyaning ilk shakli qadimgi Yunoniston davrida shakllangan. Diogen ilk bora kosmopolitizmga aniq ifoda bergan. Undan qayerlik ekanini so‘rashganida, “Men dunyo fuqarosiman(kosmopolites)” deb javob bergan. Diogenning bu yondashuvi, asosan, shaxsiy hayot tarziga asoslangan bo‘lsa-da, u siyosiy nazariyada butun insoniyatni yagona oila sifatida ko‘rish g‘oyasini kiritgan[3]. Zenon va Epiktet, bu tushunchani rivojlantirib, universal qonun asosida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni taklif qilganlar. Stoiklarning nazariyasida kosmopolitizm axloqiy tamoyil sifatida ko‘rsatilgan, ammo u Rim imperiyasi davrida amaliy siyosiy shakl olib, xalqaro huquqning dastlabki elementlarini shakllantirgan.

O‘rta asrlarda kosmopolitizm g‘oyalari xristian va islom falsafasida aks etgan. Bunga Avreliy Avgustinning "Xudo shahri" tushunchasi yoki Ibn Xaldunning mintaqaviy jamiyatlar haqidagi tahlillari misol bo‘la oladi. Ammo, ular ko‘proq diniy universalizmga asoslangan. Uyg‘onish davrida bu nazariya yangi o‘lchov olib, Erasmus va Tomas Mor kabi mutafakkirlar tomonidan inson huquqlari va tinchlik tamoyillariga bog‘langan. Biroq, kosmopolitizmning zamonaviy siyosiy shakli XVIII asrda Immanuel Kant tomonidan ishlab chiqilgan. Kantning "Abadiy tichlik sari" asarida kosmopolitizm xalqaro federatsiya va fuqarolik huquqlari tizimi sifatida taklif etilgan: u davlatlar o‘rtasidagi urushlarni oldini olish uchun xalqaro qonunlarni ilgari surgan[3]. Kantning yondashuvi siyosiy nazariyada inqilobiy bo‘lib, milliy suverenitetni global mas‘uliyat bilan muvozanatlashga asos solgan.

XIX-XX asrlarda kosmopolitizm sanoat inqilobi va kolonializm sharoitida rivojlanib, Karl Marks va Fridrix Engels tomonidan sinfiy universalizm bilan bog‘langan. Marksizmda kosmopolitizm proletar internatsionalizmi shaklida ko‘rilgan, ammo u milliy harakatlarga zid kelgan. Ikkinchi Jahon urushidan keyin nazariya yangi bosqichga o‘tib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilishi bilan amaliy shakl oldi. BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasi kosmopolitizmning institutsional ifodasi bo‘lib, davlat chegaralaridan ustun turuvchi huquqlarni ta‘minlagan[5]. Globallashuv davrida kosmopolitizm iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynadi. Bunga misol, Parij kelishuvi global iqlim o‘zgarishiga qarshi mintaqaviy hamkorlikni rag‘batlantirgan. Zamonaviy tahlillarda Gerard Delanty tomonidan kosmopolitizm ijtimoiy o‘zgarishlar mexanizmi sifatida

ko‘rilgan[10]. Evolyutsiya jarayonida kosmopolitizm abstrakt falsafadan global siyosatga aylangan, ammo milliy populizmning kuchayishi (misol, AQShdagi "America First" siyosati) uning zaifliklarini ko‘rsatgan. Bu evolyutsiya nazariyaning moslashuvchanligini isbotlaydi.

**Siyosiy va axloqiy kosmopolitizm.** Kosmopolitizmning siyosiy va axloqiy jihatlari nazariyaning markaziy qismi bo‘lib, u milliy davlatlarning chegaralaridan ustun turuvchi qadriyatlar, global fuqarolik, inson huquqlari va madaniy, diniy tolerantlikni ilgari suradi. Siyosiy tomondan, kosmopolitizm davlat suverenitetini cheklamay, uni global mas‘uliyat bilan to‘ldiradi. Kwame Anthony Appiah nazariyani begona odamlar bilan axloqiy munosabat sifatida tahlil qilib, dialog va hurmatni asosiy qadriyat sifatida ko‘rsatgan[6]. Bu yondashuv siyosiy nazariyada xalqaro institutlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. BMT yoki Yevropa Ittifoqi kabi tuzumlar davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishda kosmopolitizmning amaliy ifodasi. Biroq, tanqidiy tahlilda, nazariya milliylikni zaiflashtirishi mumkin: masalan, Martha Nussbaum kosmopolitizmni “noble but flawed” ya’ni “olijanob, lekin nuqsonli” deb atab, u milliy madaniyatlarning o‘ziga xosligini e’tiborsiz qoldirishi mumkinligini ta’kidlaydi[5].

Axloqiy tomondan, kosmopolitizm davlat chegaralaridan ustun qadriyatlar sifatida tolerantlik va inson huquqlarini ilgari suradi. Nussbaumning yondashuvida axloqiy kosmopolitizm "capabilities" (qobiliyatlar) nazariyasiga asoslanib, har bir insonning asosiy huquqlarini universal deb hisoblaydi, masalan, ta’lim va sog‘liqni saqlash huquqi butun dunyoda bo‘lishi kerak[5]. Bu axloqiy jihat siyosiy nazariyada argument sifatida ishlatiladi. Dunyo fuqaroligi milliy egoizm va patriotizmni cheklaydi. Tanqidiy nuqtadan, kosmopolitizmning axloqiy zaifligi milliy o‘zlikni, qadriyatlarni yo‘qotishda. Gillian Brock va Harry Brighouse antologiyasida nazariya global adolatni ta’minlasa-da, jamiyatlarning qadriyatlarini buzishi mumkinligi muhokama etilgan[7]. Bu bo‘limda argument sifatida kosmopolitizmni ideal g‘oya emas, zaruriy siyosiy vosita sifatida himoya qilamiz, chunki u millatlar va diniy e’tiqodlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatadi.

**O‘zbekiston kontekstida tahlil.** O‘zbekiston kontekstida kosmopolitizm milliy o‘zlik va global fuqarolik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu nazariyaning amaliy qo‘llanilishining yorqin misoli. Mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekiston tashqi siyosati muvozanatli va ko‘p tomonlama yondashuvga asoslanib, Rossiya, Xitoy, AQSh va Yevropa bilan munosabatlar o‘rnatgan. Bu kosmopolitizmning siyosiy jihatini aks ettiradi[4]. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ochiqlik siyosatini ilgari surib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va savdo aloqalarini kengaytirish orqali kosmopolitizmni namoyon qiladi. 2018-2023 yillarda xorijiy investitsiyalar hajmi 2 barobar oshgan, bu global iqtisodiy integratsiyani ko‘rsatadi[1].

Markaziy Osiyo identifikatsiyasi kosmopolitizmning regional shaklini ko'rsatadi: "biz hammamiz bir mintaqa farzandimiz" g'oyasi mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirib, suv resurslari va transport loyihalarida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning bu jarayondagi roli, masalan, 2019-yildagi Dushanbe sammitida ta'kidlangan mintaqaviy integratsiya, kosmopolitizmning axloqiy jihatini aks ettiradi. Milliy qadriyatlar va umumbashariylik o'rtasidagi uyg'unlik o'zbek xalqining bag'rikengligida ko'rinadi. Bu an'ana qadimdan mavjud bo'lib, turli millatlarning tinch yonma-yon yashashi orqali kosmopolitizm bilan mos keladi[2].

Tanqidiy tahlilda, O'zbekiston kontekstida kosmopolitizmning zaifliklari mavjud. Globallashuv milliy madaniyatni zaiflashtirishi mumkin, masalan, G'arb madaniyati ta'sirida yoshlar identifikatsiyasi o'zgarishi. Biroq, argument sifatida, nazariya bu ziddiyatni hal qiladi. Yangi O'zbekistonda madaniy almashinuv dasturlari, xalqaro festivallar milliy qadriyatlar bilan global fuqarolikni uyg'unlashtiradi. Real misol sifatida, O'zbekistonning BMTdagi ishtiroki (2021-yildagi nutqda mintaqaviy barqarorlik to'g'risida so'z yuritilgan) kosmopolitizmning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi[11]. Ushbu tahlil nazariyaning O'zbekiston uchun mosligini isbotlaydi, ammo kelajakda empirik tadqiqotlar zarur. Bu milliy siyosatni takomillashtirishga hissa qo'shadi.

### **Xulosa**

Ushbu maqolada kosmopolitizm siyosiy nazariya sifatida batafsil tahlil qilindi. Uning tarixiy evolyutsiyasi, siyosiy va axloqiy jihatlari hamda O'zbekiston kontekstida qo'llanilishi ko'rib chiqildi. Asosiy xulosa shuki, kosmopolitizm vatanparvarlikka qarshi kuch emas, balki global mas'uliyat va inson huquqlarini ta'minlovchi universal tamoyil sifatida tushunilishi kerak. Nazariyaning evolyutsiyasi antik davrdagi falsafiy ildizlardan globallashuv davridagi institutsional shakllargacha cho'zilganini ko'rsatdi, bu jarayonda u siyosiy tizimlarning moslashuvchanligini isbotladi[3]. Siyosiy va axloqiy jihatlarda kosmopolitizm davlat chegaralaridan ustun qadriyatlar, tolerantlik va dunyo fuqaroligini ilgari surib, zamonaviy muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, uning zaifliklari milliy o'zlikni zaiflashtirishi mumkinligini ko'rsatdi[6].

O'zbekiston kontekstida nazariya milliy o'zlik va global fuqarolik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda dolzarb. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ochiqlik siyosatini ilgari surib, tashqi siyosatda ko'p tomonlama yondashuvni joriy etdi[1]. O'zbek madaniyatidagi bag'rikenglik an'anasi kosmopolitizm bilan uyg'un bo'lib, milliy qadriyatlar, masalan, etnik ozchiliklar integratsiyasini global tamoyillar bilan bog'laydi. Bu tahlil nazariyaning O'zbekiston uchun ahamiyatini ochib berdi. U nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki madaniy almashinuv va mintaqaviy hamkorlikka ham hissa qo'shadi[8]. Umuman, kosmopolitizm O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun milliy qadriyatlarni saqlagan

holda global integratsiyani ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Amaliy takliflar: o'quv dargohlarida global ta'lim dasturlarini joriy etish orqali tolerantlik va milliy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash. Kelajak istiqbollari haqida aytganda, kosmopolitizm haqidagi tadqiqotlar empirik jihatdan rivojlantirilishi lozim. Qo'shimcha tahlillar Markaziy Osiyo mamlakatlarida kosmopolitizmning iqtisodiy ta'sirini baholashi mumkin. Bu esa siyosatni yanada takomillashtirishga yordam beradi. Ushbu ish kosmopolitizmning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berdi. Ammo, kelajakdagi tadqiqotlar uning global va mahalliy o'lchovlarini chuqurlashtirishi kerak.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

[1] Anceschi, L. (2019). Mirziyoyev's Foreign Policy: Globalizing Uzbekistan in the Asian Century. *Georgetown Journal of International Affairs*. <https://gjia.georgetown.edu/2019/04/02/mirziyoyevs-foreign-policy-globalizing-uzbekistan>

[2] Dadabaev, T. (2018). Foreign Policy Orientation of Independent Central Asian States: Looking Through the Prism of Ideas and Identities. *The Korean Journal of International Studies*, 16(3), 389-410.

[3] Kleingeld, P., & Brown, E. (2019). Cosmopolitanism. In *Stanford Encyclopedia of Philosophy*. <https://plato.stanford.edu/entries/cosmopolitanism>

[4] Tolipov, F. (2021). Uzbekistan-2.0: Continuity and Change in Foreign Policy. *Central Asia-Caucasus Analyst*. [https://www.cacianalyst.org/resources/221219\\_FT\\_Tolipov.pdf](https://www.cacianalyst.org/resources/221219_FT_Tolipov.pdf)

[5] Nussbaum, M. C. (2019). *The Cosmopolitan Tradition: A Noble but Flawed Ideal*. Harvard University Press.

[6] Appiah, K. A. (2006). *Cosmopolitanism: Ethics in a World of Strangers*. W.W. Norton & Company.

[7] Brock, G., & Brighouse, H. (Eds.). (2005). *The Political Philosophy of Cosmopolitanism*. Cambridge University Press.

[8] Buranelli, F. C. (2025). Central Asian regionalism in the 1990s: Order, familiarization, and spotlighting. *Central Asian Survey*.

[9] Marsden, M. (2017). Islamic cosmopolitanism out of Muslim Asia: Hindu-Muslim business co-operation between Odessa and Yiwu. *History and Anthropology*, 28(1), 121-139.

[10] Delanty, G. (2012). A cosmopolitan approach to the explanation of social change: Social mechanisms, processes, modernity. *The Sociological Review*, 60(2), 333-354.

[11] Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Nutq BMT Bosh Assambleyasida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/1227>